



INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

No2

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

2-jild
2-son
fevral, 2026

February, 2026
Volume 2
Number 2

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal

**INNOVATSION IQTISODIYOT****ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL**

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:**Qarshi davlat texnika universiteti****Tahririyat Kengashi raisi:**

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

*Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.***Tahririyat manzili:**

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:**Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:**

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)
 Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)
 Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)
 Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)
 Kusainov Xalel Xaymullievich – i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)
 Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)
 Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)
 Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
 Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)
 Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)
 Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)
 Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
 Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)
 Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
 Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)
 Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)
 Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
 Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)
 Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)
 Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik
 Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor
 Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor
 Xatamov Ochildi Qurbonovich- i.f.d., professor
 Fayziyeva Shirin Shodmonovna- i.f.n., professor
 Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor
 Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent
 Erkeyeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor
 Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent
 Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
 Samiyeva Gulnoza Toxirovna-i.f.f.d., (PhD), dotsent
 Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich -i.f.f.d., (PhD), dotsent
 Aminov Fazlitdin Baxadirovich- i.f.n., dotsent
 Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent
 Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
 Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
 Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent
 Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
 Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent
 Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent
 Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent
 Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent
 Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)
 Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)
 Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)
 Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Незаймакин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

Service sector and tourism

Сфера услуг и туризм



TURIZM SOHASI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHDA TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Ibodova Mohinur Toshtemir qizi

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО- ЭКОНОМИЧЕСКИХ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ИНФРАСТРУКТУРЫ В СФЕРЕ ТУРИЗМА

Ибодова Мохинур Тоштемур кизи

IMPROVING ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC MECHANISMS FOR THE DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE

Ibodova Mokhinur Toshtemir kizi

Received: February 9, 2026 Revised: February 14, 2026 Accepted: February 20, 2026 Published: March 1, 2026

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm sohasi infratuzilmasini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish masalalarini o'rganadi. Tadqiqotda infratuzilma elementlarini rivojlantirish, davlat va xususiy sektor hamkorligi, investitsiyalarni jalb etish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish usullari tahlil qilingan. Natijalar turizmni barqaror rivojlantirish va raqobatbardosh infratuzilma yaratish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: turizm sohasi, infratuzilma, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, investitsiya siyosati, davlat-xususiy hamkorlik, rivojlanish strategiyasi, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы совершенствования организационно-экономических механизмов при развитии туристской инфраструктуры. В исследовании проанализированы методы развития элементов инфраструктуры, сотрудничество государственного и частного сектора, привлечение инвестиций и повышение экономической эффективности. Полученные результаты позволяют разработать практические рекомендации для устойчивого развития туризма и создания конкурентоспособной инфраструктуры.

Ключевые слова: туризм, инфраструктура, организационно-экономический механизм, инвестиционная политика, государственно-частное партнерство, стратегия развития, экономическая эффективность.

Abstract: This article examines the issues of improving organizational and economic mechanisms in the development of tourism infrastructure. The study analyzes methods for developing infrastructure components, cooperation between the public and private sectors, attracting investments, and increasing economic efficiency. The results provide practical recommendations for sustainable tourism development and the creation of a competitive infrastructure.

Keywords: tourism sector, infrastructure, organizational and economic mechanism, investment policy, public-private partnership, development strategy, economic efficiency.

■ KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan va yuqori darajada qo'shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

BMTning Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO) hisobotlariga ko'ra, 2023–2024 yillarda xalqaro turistlar oqimi 2019 yil darajasining 95 % dan oshib, global daromadlarning qayta tiklanishi kuzatilgan va turizm sektori global YaIMning 10 % dan ortig'iga hissa



qo'shgan. Shu bilan birga, sektorda 330 milliondan ortiq to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ish o'rinalari shakllangan bo'lib, bu global bandlikdagi sezilarli ulushni tashkil etadi[1]. Turizmning rivojlanishi iqtisodiy o'sishni jadallashtirish, hududlar raqobatbardoshligini oshirish, yangi ish o'rinalari yaratish hamda xizmatlar sektorining kengayishiga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu jarayonda turizm infratuzilmasining holati va rivojlanish darajasi sohaning samarali faoliyat yuritishini belgilovchi asosiy shartlardan biri sifatida maydonga chiqadi.

Turizm infratuzilmasi transport, joylashtirish vositalari, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda servis xizmatlari majmuini o'z ichiga olib, turistik mahsulotning shakllanishi va iste'molchiga etkazilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi [2]. So'nggi statistik ma'lumotlar infratuzilma investitsiyalarining har bir dollarining iqtisodiy multiplikator effektini keltirib chiqarishini ko'rsatadi: transport va xizmat infratuzilmasi rivojlangan mamlakatlarda turizm daromadlari 15–25 % ga yuqoriroq bo'ladi. Shu bilan birga, infratuzilmaning etarli darajada rivojlanmaganligi turistik xizmatlar sifati va xilma-xilligini cheklaydi, investitsiya jarayonlarining sustlashuviga hamda turizm salohiyatidan to'liq foydalanilmasligiga olib keladi. Bu holat ayniqsa infraqurilish resurslari chegaralangan mintaqalarda sezilarli bo'lib, ularni rivojlantirish uchun kompleks tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish va takomillashtirishni talab etadi[3]. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda turizm infratuzilmasini rivojlantirish jarayoni davlat tomonidan tartibga solish, xususi sektor faolligini rag'batlantirish, investitsiyalarni jalb etish hamda innovatsion yondashuvlarni joriy etish bilan chambarchas bog'liqdir. Ushbu jarayonlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan tashkiliy boshqaruv tizimlarining samaradorligi, iqtisodiy rag'batlar va moliyaviy mexanizmlarning to'g'ri tanlanishiga bog'liq bo'lib, ularning o'zaro uyg'unligi turizm infratuzilmasining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Shu nuqtai nazardan, turizm sohasi infratuzilmasini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish masalalarini ilmiy asosda tadqiq etish, mavjud yondashuvlarni tizimli tahlil qilish va ularni amaliyotga moslashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur yo'nalishda ishlab chiqiladigan nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar turizm sohasining raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish hamda uzoq muddatli barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

■ TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda turizm sohasi infratuzilmasini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish masalalarini o'rganish uchun tizimli va kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya usullari orqali nazariy manbalar umumlashtirildi hamda turizm infratuzilmasining tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aniqlandi. Shuningdek, statistik tahlil, taqqoslama tahlil

va iqtisodiy baholash usullari yordamida turizm infratuzilmasi rivojlanishiga ta'sir etuvchi tashkiliy va iqtisodiy omillar baholandi. Tadqiqotda institutsional tahlil va modellashirish usullari qo'llanilib, davlat tomonidan tartibga solish, investitsiya va boshqaruv mexanizmlarining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda turizm sohasi infratuzilmasini rivojlantirish masalalari asosan xizmatlar iqtisodiyoti va destinatsiya raqobatbardoshligi konsepsiyalari doirasida tadqiq etilgan. Jumladan, Chris Cooper va C. Michael Hall tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda turizm infratuzilmasi transport, joylashtirish, axborot va servis tizimlarining yagona majmui sifatida talqin qilinib, ularning rivojlanish darajasi turistik oqimlar hajmi va hududiy iqtisodiy samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan [4]. Geoffrey Crouch va J.R.Brent Ritchie tomonidan ishlab chiqilgan destinatsiya raqobatbardoshligi modelida infratuzilma asosiy tayanch omillardan biri sifatida baholanib, davlat tomonidan tartibga solish, investitsiya rag'batlari va institutsional boshqaruv mexanizmlarining uyg'unligi infratuzilmaning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim shart ekanligi ko'rsatib o'tilgan [5]. Ushbu tadqiqotlarda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar ko'proq strategik darajada yoritilgan bo'lib, ularning amaliy samaradorligini baholash masalalari cheklangan holda tahlil qilingan.

MDH mamlakatlari olimlari ilmiy ishlarida turizm infratuzilmasini rivojlantirish masalalari asosan hududiy iqtisodiyot va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari bilan bog'liq holda ko'rib chiqilgan. Xususan, A.Yu.Aleksandrova turizm infratuzilmasini hududiy rivojlanishning asosiy omili sifatida baholab, davlatning muvofiqlashtiruvchi roli va boshqaruv institutlarini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi [6]. A.V. Babkin tadqiqotlarida turizm infratuzilmasining rivojlanishi klaster yondashuvi va tarmoqlararo integratsiya orqali samaradorlikka erishishi ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, I.T.Balabanov ishlarida infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda investitsion mexanizmlar, davlat-xususi sheriklik va iqtisodiy rag'batlantirish vositalarining ahamiyati ochib berilgan [7]. Biroq MDH olimlari tadqiqotlarida tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning o'zaro integratsiyasi hamda ularning turizm infratuzilmasi rivojiga kompleks ta'sirini baholash masalalari etarli darajada tizimlashtirilmagan bo'lib, bu yo'nalishda qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini ko'rsatadi.

■ TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm sohasi infratuzilmasini rivojlantirish murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, u nafaqat moddiy obyektlar – transport tarmoqlari, joylashtirish vositalari va servis infratuzilmasini yaratish, balki ushbu jarayonlarni samarali boshqarish va moliyalashtirishni ham talab etadi. Shu bois turizm infratuzilmasining barqaror rivojlanishi tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning o'zaro uyg'unligi asosida ta'minlanadi.

Turizm sohasi infratuzilmasini rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar

	Mexanizm turi	Tarkibiy elementlar	Asosiy vazifalari	Amalga oshirish vositalari	Kutiladigan natijalar
1	TASHKILIY mexanizm	Davlat boshqaruvi organlari (respublika–viloyat–tuman)	Strategik maqsadlarni belgilash	Davlat dasturlari, master-rejalar	Hududiy ustuvor yo‘nalishlar aniqlanadi
		Hududiy turizm boshqarmalari	Muvofiqlashtirish	Yo‘l xaritalari, reglamentlar	Institutlararo uyg‘unlik
		Klaster va DXSh (PPP)	Hamkorlikni tashkil etish	Bitimlar, konsorsiumlar	Xususiy sektor faolligi
		Monitoring va nazorat	Sifat va samaradorlikni ta‘minlash	Standartlar, audit	Xizmatlar sifati oshadi
2	IQTISODIY mexanizm	Davlat byudjeti mablag‘lari	Boshlang‘ich moliyalashtirish	Maqsadli transferlar	Infratuzilma obyektlari barpo etiladi
		Xususiy va xorijiy investitsiyalar	Kapital jalb etish	Investitsiya shartnomalari	Investitsiya hajmi oshadi
		Soliq imtiyozlari va subsidiyalar	Rag‘batlantirish	Preferensiyalar	Investorlar faolligi kuchayadi
		Kredit va moliyaviy instrumentlar	Moliyaviy barqarorlik	Imtiyozli kredit, leasing	Loyihalar uzluksiz amalga oshadi
3	O‘ZARO BOG‘LIQLIK	Strategik qaror + moliyaviy resurs	Qarorlarning amaliy ijrosi	Tashkiliy–iqtisodiy uyg‘unlik	Barqaror turizm infratuzilmasi
4	YAKUNIY NATIJA	Infratuzilma obyektlari va servislar	Turistlar oqimini oshirish	Kompleks rivojlanish	Hududiy iqtisodiy o‘shish

Tashkiliy mexanizmlar turizm infratuzilmasini rivojlantirish jarayonida ishtirok etuvchi subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning vakolat va mas‘uliyatlarini aniqlash hamda strategik boshqaruvni amalga oshirishga xizmat qiladi. Ushbu mexanizmlar davlat boshqaruvi organlari, hududiy turizm tuzilmalari, xususiy sektor va jamoatchilik institutlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tartibga soladi. Tashkiliy mexanizmlar orqali hududiy rivojlanish ustuvor yo‘nalishlari belgilanadi, dastur va loyihalar shakllantiriladi, shuningdek, turizm infratuzilmasi obyektlarini joylashtirish va rivojlantirish bo‘yicha qarorlar qabul qilinadi. Shu jihatdan tashkiliy mexanizmlar turizm infratuzilmasi rivojlanishining institutsional asosini tashkil etadi.

Iqtisodiy mexanizmlar esa turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy va investitsion resurslarni safarbar etish, ularni samarali taqsimlash hamda iqtisodiy rag‘batlantirish vositalarini qo‘llashga yo‘naltirilgan. Ushbu mexanizmlar davlat byudjeti mablag‘lari, xususiy va xorijiy investitsiyalar, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar hamda soliq rag‘batlari orqali infratuzilma loyihalarining iqtisodiy asoslanganligini ta‘minlaydi. Iqtisodiy mexanizmlar turizm infratuzilmasining amaliy jihatdan barpo etilishi

va undan iqtisodiy samaradorlikka erishishda muhim rol o‘ynaydi.


Tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik turizm infratuzilmasini rivojlantirish jarayonining muhim qonuniyatlaridan biri hisoblanadi. Tashkiliy mexanizmlar orqali belgilangan strategik maqsad va ustuvor yo‘nalishlar iqtisodiy mexanizmlar yordamida real moliyaviy ta‘minotga ega bo‘ladi. Aksincha, iqtisodiy resurslarning samarali ishlatilishi ularni boshqarish va muvofiqlashtirishning puxta tashkiliy tizimisiz mumkin emas. Shu sababli ushbu mexanizmlardan birining etarli darajada ishlamasligi butun infratuzilma rivojiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Turizm sohasi infratuzilmasini rivojlantirish hududiy iqtisodiy o‘shishni ta‘minlovchi muhim omillardan biri bo‘lib, uning samaradorligi ko‘p jihatdan tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning o‘zaro uyg‘unligiga bog‘liq. Mazkur mexanizmlar integratsiyalashgan holda faoliyat yuritgandagina infratuzilma obyektlarini barpo etish, xizmatlar sifati oshirish va turistlar oqimini ko‘paytirish mumkin bo‘ladi.

Tashkiliy mexanizmlar turizm infratuzilmasini rivojlantirishning institutsional asosini tashkil etadi va davlat boshqaruvi, hududiy turizm tuzilmalari, strategik



rejalashtirish, klasterlash hamda monitoring va nazorat tizimlarini qamrab oladi.



1-rasm. Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar modeli

Davlat darajasida qabul qilinadigan strategik dasturlar va hududiy rivojlanish konsepsiyalari infratuzilma rivojining ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi. Masalan, 2022–2026 yillarga mo'ljallangan hududiy dasturlar doirasida Qashqadaryo viloyatida turizm infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan o'nlab loyihalar shakllantirildi. Hududiy turizm boshqaruvi organlari ushbu qarorlarni amaliyotga tatbiq etib, joylashtirish obyektlari, servis xizmatlari va transport infratuzilmasini rivojlantirishni muvofiqlashtirdi. Natijada, viloyatda joylashtirish obyektlari soni 2022–2024 yillarda qariyb olti barobar oshdi.

Strategik rejalashtirish mexanizmi orqali turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlar aniqlanib, investitsiyalar asosan tarixiy-madaniy resurslarga ega tumanlarga yo'naltirildi. Shu bilan birga, klaster va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining joriy etilishi xususiy sektor ishtirokini kengaytirib, infratuzilma loyihalarining iqtisodiy samaradorligini oshirdi. Monitoring va nazorat tizimi esa loyihalarining bajarilishi va xizmatlar sifatini baholab, tizimning barqarorligini ta'minlashga xizmat qildi.

Iqtisodiy mexanizmlar tashkiliy qarorlarning real moliyaviy ta'minotini amalga oshiruvchi asosiy vosita hisoblanadi. Davlat byudjeti mablag'lari boshlang'ich infratuzilma obyektlarini yaratishga yo'naltirilsa, xususiy va xorijiy investitsiyalar infratuzilmaning ko'lamini kengaytirishga xizmat qiladi. Amaliy ma'lumotlarga ko'ra, Qashqadaryo viloyatida turizm sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2022 yildagi <https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>

86,2 mlrd so'mdan 2024 yilda 312,5 mlrd so'mga etib, 3,6 barobar o'sdi. Soliq imtiyozlari va subsidiyalari investorlar uchun qulay sharoit yaratib, yangi mehmonxona va servis obyektlarining jadal rivojlanishiga sabab bo'ldi. Imtiyozli kreditlar va moliyaviy instrumentlar esa infratuzilma loyihalarining uzluksiz moliyalashtirilishini ta'minlab, xususiy sektor faolligini oshirdi.

Tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar o'rtasidagi o'zaro muvofiqlashtirish infratuzilma rivojining markaziy bo'g'ini hisoblanadi. Ushbu bosqichda hududiy ustuvor yo'nalishlar aniqlanadi, iqtisodiy jihatdan samarali loyihalar tanlab olinadi va mavjud resurslar real ehtiyojlar bilan moslashtiriladi. Natijada, investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada oshib, tanlangan loyihalarining rentabellik darajasi o'rtacha 18–22 foizni tashkil etdi.

Mazkur mexanizmlarning integratsiyalashgan faoliyati yakunida turizm infratuzilmasining real rivoji ta'minlanadi. Xususan, joylashtirish quvvatlari kengayib, o'rinlar soni bir necha barobarga oshdi, transport va muhandislik infratuzilmasining qamrovi kengaydi, turistik servislar sifati yaxshilandi. Bularning barchasi turistlar oqimining ko'payishiga va hududiy iqtisodiy o'sishga olib keldi. 2024 yilda viloyatda joylashtirish obyektlarida xizmat ko'rsatilgan turistlar soni 267 ming kishidan oshib, turizmning hududiy yalpi mahsulotdagi ulushi taxminan 2,5–3,0 foizga etdi.

Turizm infratuzilmasini rivojlantirishda tashkiliy mexanizmlar strategik boshqaruv va institutsional



muvofiglashtirishni, iqtisodiy mexanizmlar esa moliyaviy ta'minot va rag'batlantirishni amalga oshiradi. Ularning o'zaro uyg'unligi hududiy turizm infratuzilmasining barqaror rivojlanishini ta'minlab, iqtisodiy faollik, bandlik va hududning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

■ XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot turizm sohasi infratuzilmasini rivojlantirishda tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning o'zni hamda ularning o'zaro uyg'unligining ahamiyatini ilmiy asosda yoritishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, turizm infratuzilmasining barqaror rivojlanishi alohida mexanizmlarning mavjudligi bilan emas, balki ularning yagona tizim sifatida integratsiyalashgan holda faoliyat yuritishi bilan belgilanadi. Tashkiliy mexanizmlar strategik boshqaruv, institutsional muvofiglashtirish va hududiy ustuvorliklarni belgilash orqali infratuzilma rivojining konseptual asosini shakllantiradi. Iqtisodiy mexanizmlar esa ushbu qarorlarning amaliy ijrosini moliyaviy resurslar, investitsiyalar va iqtisodiy rag'batlantirish vositalari orqali ta'minlaydi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ushbu mexanizmlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik investitsiya resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirib, infratuzilma loyihalarining iqtisodiy natijadorligini kuchaytiradi. Empirik tahlillar asosida ishlab chiqilgan integratsiyalashgan model hududiy darajada turizm infratuzilmasini rivojlantirishda tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning muvofiglashtirilgan holda qo'llanishi turistlar oqimini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash hamda hududiy iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga xizmat qilishini tasdiqladi. Xususan, investitsiyalar hajmining o'sishi, joylashtirish quvvatlarining kengayishi va servis sifati ko'rsatkichlarining yaxshilanishi mazkur mexanizmlarning samarali ishlashini ifodalovchi asosiy natijalar sifatida namoyon bo'ldi.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari turizm infratuzilmasini rivojlantirish jarayonida tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarning integratsiyalashgan yondashuvi hududiy turizm siyosatini takomillashtirishning muhim sharti ekanligini ko'rsatadi. Ushbu yondashuvdan foydalanish hududlarning turistik

raqobatbardoshligini oshirish, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash va turizm sohasining milliy iqtisodiyotdagi ulushini kengaytirishda amaliy ahamiyatga ega.

Muallif (lar) haqida / Сведения об авторе / Author details

Ibodova Mohinur Toshtemir qizi Qarshi davlat universiteti tayanch doktoranti / Ибодова Мохинур Тоштемур кызы, базовый докторант Каршинского государственного университета / Ibodova Mokhinur Toshtemir kzy, basic doctoral student at Karshi State University

mohinuribodova80@gmail.com

ORCID: 0009-0008-2306-1013

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi 201-sonli "Qashqadaryo viloyatini 2022–2026-yillarda kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori // www.lex.uz.

2. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligi. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish bo'yicha statistik ma'lumotlar. – Toshkent, 2024.

3. Qashqadaryo viloyati Statistika boshqarmasi. Turizm va joylashtirish vositalari faoliyati to'g'risida axborot byulleteni. – Qarshi, 2022–2024.

4. UNWTO. Tourism and Economic Growth: A Global Perspective. – Madrid: World Tourism Organization, 2022.

5. Cooper C., Fletcher J., Fyall A., Gilbert D., Wanhill S. Tourism: Principles and Practice. – 5th ed. – Harlow: Pearson Education Limited, 2018. – 720 p.

6. J. Zukhra Effective use of the experience of advanced foreign countries in state support for tourism // *Gwalior Management Academy Journal*. – 2023. – URL: <https://scholar.google.com>

7. Sharpley R., Telfer D. Tourism and Development: Concepts and Issues. – 2nd ed. – Bristol: Channel View Publications, 2015. – 480 p.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz